Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



O'ZBEKISTONDA DAVLAT KORXONALARI AKSIYALARINI MOLIYA BOZORLARIDA SOTISHNI JADALLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Anvar Eshmatov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarining aksiyalarini sotish tartibi, aksiyalarni savdo chiqarish bosqichlari, aksiyalarni sotish usullariga ta'sir etuvchi omillar yoritib o'tilgan. Davlat aksiyalarini sotishda IPO usulining afzalliklari, O'zbekiston sharoitida amalga oshirilgan IPO dasturi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Davlat korxonalarini IPO usulida sotish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan rejalarning amalga oshirilmaganligi tahlil qilingan. Bu yo'nalishdagi belgilangan rejalar va ularning ahamiyati yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat korxonasi, davlat korxonasining aksiyalarini sotish, fond birjasi, IPO, SPO.

Abstract: This article describes the procedure for selling shares of state-owned enterprises, the stages of selling shares, as well as factors influencing on making decision on the methods of selling shares. The advantages of the IPO method in the sale of government shares are outlined and information about the IPO conducted in the conditions of Uzbekistan is presented. The failure to fulfill plans for the sale of state-owned enterprises established by government using the IPO method is analyzed. The plans defined by the government in this direction and their importance are highlighted.

Key words: state owned enterprise, sale of shares of state owned enterprises, stock exchange, IPO, SPO.

Аннотация: В данной статье описан порядок реализации акций государственных предприятий, этапы реализации акций, а также факторы, влияющие на способы реализации акций. Изложены преимущества метода IPO при продаже государственных акций и представлена информация о проведенной IPO в условиях Узбекистана. Проанализировано невыполнение установленных государством планов по продаже госпредприятий методом IPO. Освещены определенные правительством планы в этом направлении и их важность.

Ключевые слова: государственное предприятие, продажа акций госпредприятий, биржа, IPO, SPO.

KIRISH

So'nggi 6 yilda davlat korxonalarining aksiyalarini fond bozori instrumentlaridan foydalangan holda sotish, har bir aksiyani bittadan lot sifatida savdoga qo'yish, korxonalarda "IPO" hamda "SPO" tadbirlarini qo'llash tajribalari o'tkazildi.

Ushbu chora-tadbirlar doirasida sotilgan aksiyalar soni va ko'lami, jalb etilgan kapital miqdori, aksiyalarning bozor kotirovkalari o'zgarish va keyinchalik dinamikasidan qat'iy nazar, mazkur amaliyotlarning natijadorligi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud.

Moliya bozori va xususan, fond bozori elementlarining to'liq shakllanmaganligi, tashkiliy, institutsional va texnik muammolarning ko'pligi, korxonalarda yo'lga qo'yilgan korporativ boshqaruv holati, korxonalarining samaradorligi va faoliyatining shaffofligi, aholi savodxonligi va boshqa ko'plab faktorlarning har biri bo'yicha albatta keng miqyosda to'xtatish mumkin va bunday zarurat har doimgidan ham kuchliroq bo'lib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat korxonalari aksiyalarini sotish masalasi, uni sotishning usullari va bosqichlari chet ellik olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ko'plab mamlakatlarning milliy fond bozorini rivojlantirishda aynan davlatga tegishli korxonalarining aksiyalarini sotish jarayonlari hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Chili universiteti hamda Garvard universitetining Xalqaro rivojlanish markazi vakili Rodrigo Vagner, korxonaning bozor qiymati aniqlanishi uchun uning aksiyalari fond bozorida oldi-sotdi qilinishi shartligini, aksiyalari 100 foiz davlat egaligida bo'lgan va fond bozorlarida oldi-sotdi qilinmayotgan korxonalar uchun bozor qiymati



mavjud emasligi to'g'risidagi ilgari surgan fikri diqqatga sazovor. Ularning fikricha, bunday korxonalarning bozor qiymatini aniqlashning sharti sifatida ularni xususiylashtirish zarur hisoblanadi¹.

O'zbekistonlik olimlar professor S. Elmirzayev, iqtisod fanlari doktorlari X. Xudoyqulov, D. Abdikarimovlar, iqtisod fanlari falsafa doktori Q. Chinqulov tomonidan davlat aksiya paketlarining qiymatini aniqlash, aksiyalarni IPO usulida sotish, bunda aksiyalarning narxiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan mazmunli tadqiqotlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ishtirokidagi korxonalarni huquqiy maqomini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, sabab-oqibat aloqadorligi va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini xususiylashtirish ko'lamini kengaytirish va transformatsiya qilish, davlat ishtirokidagi korxonalarga zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, davlat ulushlarini sotish, jumladan davlat kompaniyalari ustav kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga oxirgi 6 yilda juda katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish bo'yicha bir qator normativ hujjatlar qabul qilindi.

Nazariy jihatdan qaralganda, davlat korxonalarining aksiyalari yoki aksiya paketlari yirik ulushlar va nazorat paketi shaklida yoki "har bir aksiya – bitta lot" tamoyili bo'yicha sotilishi mumkin. Fikrimizcha, bu korxonadagi quyidagi omillarga bog'liq:

1. Korxonaning muayyan iqtisodiyot tarmog'idagi o'rni.

Ayrim korxonalar tizim hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning faoliyati o'zaro aloqador bo'lgan ko'plab boshqa korxonalar faoliyatini ta'minlab beradi. Shu maqsadda, ushbu korxonalar strategik investorlarga sotish uchun yirik aksiya paketi sifatida savdoga chiqarilishi mumkin.

2. Davlat tomonidan kutilayotgan natijalarga.

Davlat muayyan korxonani sotishdan quyidagi maqsadlardan birini yoki ularning kombinatsiyasini kutishi mumkin:

- budgetga daromadlarni ta'minlash;
- ish o'rni yaratish va mavjud ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash kabi shaklidagi ijtimoiy majburiyatlarni bajarish;
- korxonani modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish shaklidagi investitsiyaviy majburiyatlarni yuklash;
- korxona faoliyatining shaffofligini va ochiqqligini ta'minlash, ijro organlari rahbarlarining hisobdorligini oshirish;
- korxona faoliyatini optimizatsiya qilish yoki bo'lish.

Bunda davlat tomonidan kutiladigan sotish muddati ham muhim ahamiyatga ega. Sotish uchun belgilanadigan muddat – investorlarni jalb etish shakllari va muddatlariga, targ'ibot ishlarini tashkil etish ko'lami va doirasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

3. Korxonaning aksiyalarni sotishga tayyorlik darajasiga.

Bunda, korxonalar muayyan muddat davomida aksiyalarni sotishga tayyorlanishi, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rishi mumkin. Yaxshi tayyorlanmagan korxona aksiyalariga talab past bo'lishi va bu holat narxga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Bozor ishtirokchilarining ishtahasiga.

Mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat, investitsiyaviy muhit korxona aksiyalarining sotilishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

5. Moliya bozori infratuzilmasining rivojlanganlik holatiga.

Fond bozorida turli yo'nalishda professional ishtirokchilar, brokerlar, konsalting firmalari va birja institutlari tomonidan o'rnatiladigan savdo qoidalari bevosita aksiyalarning sotilishiga ijobiy ta'sir qilishi yoki putur yetkazishi mumkin.

O'zbekistonda davlat aksiyalarini sotish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlanadigan xususiylashtirish dasturlariga asosan amalga oshiriladi. Bunda, sotiladigan aksiyalari sotilishi belgilanadigan korxonalar ro'yxati manfaatdor vazirlik va idoralar, xo'jalik boshqaruvi organlari, emitentlarning o'zlarining takliflariga, nodavlat yuridik shaxslarning, shuningdek jismoniy shaxslarning buyurtmanomalariga muvofiq shakllantiriladi.

1 Rodrigo Wagner. Can the market value state-owned enterprises without privatizing them? An application to natural resources companies. Resources Policy 59 (2018) 282–290, journal homepage: www.elsevier.com/locate/resourpol



Mazkur tartib Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat aksiyalarini sotish tartibi to’g’risida”gi Nizomda belgilab berilgan.

Davlat aksiyalarini sotish birja va birjadan tashqari savdolarida amalga oshiriladi. Emitent ustav fondining 10 foizidan oshmaydigan, yalpi nominal qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 5000 baravaridan kam bo’lgan davlat aksiyalari birjadan tashqari savdo tizimlari (BTST) savdolariga chiqariladi.

Bunda, aksiyalarni savdo chiqarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- aksiyasi sotiladigan korxonaning barcha aktivlari, mulklari va majburiyatlari xatlovdan o’tkaziladi;
- korxona baholash tashkiloti tomonidan baholashdan o’tkaziladi;
- baholash hisobotining haqqoniyligi ekspertizadan o’tkaziladi;
- vakolatli davlat organining tegishli buyrug’i asosida savdoga chiqarish belgilanadi;
- vakolatli davlat organi jalb etgan brokerlik kompaniyasi tomonidan aksiyalar sotilishi to’g’risida fondi birjasida e’lon beriladi.

Bu jarayon o’ziga xos murakkabliklarga ega bo’lib, davlat aksiyalarini savdoga chiqarishda ko’p muddat talab etilishiga va ularning uzoq muddat sotilmasdan turishiga sabab bo’lishi mumkin.

Dunyo tajribasida davlat korxonalarining aksiyalarini sotishda IPO (Initial Public Offering) – kompaniya aksiyalarini fond bozorida birlamchi ommaviy joylashtirish usuli ijobiy natija bergan.

Eng muvaffaqiyatli IPOlar sifatida Buyuk Britaniyada keng miqyosda xususiyashtirish jarayonida mamlakatning Bosh vaziri Margaret Tetcher tomonidan qo’llanganligi e’tirof etiladi. Jumladan, Margaret Tetcher davrida Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tuzilgan eng muhim xususiyashtirish bitimlari - 1982-yilda Amer-sham International yadroviy tibbiyot kompaniyasi 97 mln dollar, 1984-yilda British Telecom kompaniyasi 6 mlrd dollar, 1986 yilda British Gas 8,6 mlrd dollar, 1987-yilda British Airways 1,4 mlrd dollar, 1987-yil Rolls-Royce 2 mlrd dollar qiymatdagi bitimlar e’tirof etiladi. Shu davrda, mamlakatdagi aksioner aholining soni uch milliondan 12-15 milliontagacha oshgan.

O’zbekiston tajribasida 2018-yilda “Toshkent” fond birjasida “Kvars” aksiyalarining IPOsi o’tkazildi. Aholi ko’proq qimmatbaho qog’ozlarni kichik miqdorda - 2 dan 100 dona aksiyagacha olganiga, maksimal paket soni esa 2287 dona aksiyadan iborat bo’lganiga qaramay, 3,3 mingdan ortiq kishi “Kvars” AJning yangi aksiyadorlariga aylandi. Brokerlar buni O’zbekistonda fond bozori endigina rivojlana boshlagani va investorlar dastlabki taxminiy qadamlarni qo’yayotgani bilan izohlashdi. “Kvars” aksiyalarini ikkilamchi joylashtirish (SPO) 2019-yilning oxirida amalga oshirildi. Tashkilotchi sifatida Freedom Broker xalqaro investitsion kompaniyasi bo’ldi. Zavod avvaliga 4,82 mln aksiyalarni sotishni rejalashtirgan edi, ammo obuna jarayoni davomida brokerlar 4,89 mln aksiyalar uchun talabnomalar olishga erishdilar. Talab taklif etilgan aksiya paketiga nisbatan 101,4 foizni tashkil qilgan.

Shunga qaramasdan, keyingi bosqichlarda o’tkazilgan IPOlarni va o’tkazilishi rejalashtirilgan IPOlarni muvaffaqiyatli deb bo’lmaydi. Masalan, quyidagi jadvalda Hukumatning 2019-yildagi 358-son qarori qabul qilinganligiga qaramay, nomlari qayd etilgan korxonalarda IPO tadbirlari amalga oshmagan (1-jadval):

1-jadval: Davlat korxonalari aksiyalarini 2019-yilda ommaviy taklif etish rejasi

T/r	Aksiyadorlik jamiyati nomi	Taklif etilayotgan ulush miqdori	IPO tashabbuskori	Amalga oshirish shakli
1.	“O’zsanoatqurilish bank” ATB	10	“O’zsanoatqurilish bank” ATB	IPO
2.	“Alokabank” ATB	10	Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi, “O’zbektelekom” AJ	SPO
3.	“Asia Alliance Bank” ATB	10	“Asia Alliance Bank” ATB	IPO
4.	“Jizzax plastmassa” AJ	25	“Jizzax plastmassa” AJ	IPO
5.	“O’zbekiston tovar xom ashyo birjasi” AJ	12	“O’zmetkombinat” AJ va “OKMK” AJ	SPO

Jadvaldan ko’rish mumkinki, “O’zsanoatqurilish bank” ATB, “Asia Alliance Bank” ATB va “Jizzax plastmassa” AJda qo’shimcha aksiyalar emissiya qilish orqali fond bozorida sotish belgilangan. “Alokabank” ATB hamda “O’zbekiston tovar xom ashyo birjasi” AJ bo’yicha davlat korxonalari tegishli bo’lgan aksiyalarni sotish belgilangan. Bunda, bozor holatidan kelib chiqqan holda, aksiyalarni bosqichma-bosqich sotish belgilangan bo’lsada, IPOlar amalga oshmagan.

Xuddi shunday IPO dasturi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish



to'g'risida"gi 446-son qarori bilan tasdiqlanganligiga qaramay, 2022-2023-yillarda bozorga taklif etilishi lozim bo'lgan aksiyalardan faqat "O'zbekinvest" AJning ustav kapitalining 2 foizi miqdorida taklif etilganligini hamda "UzAuto Motors" AJning 0,3 foiz aksiyalari joylashtirilganligini ko'rish mumkin.

Fikrimizcha, O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini IPO usulida sotish ushbu korxonalar faoliyatida hisobdorlikni oshirish, qo'shimcha kapital jalb qilish, keyingi yirik xususiyashtirish dasturlariga tayyorlash va moliya bozorini faollashtirish uchun juda zarur hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz qarorlariga muvofiq, O'zbekiston iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, xususiyashtirish va fond bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha o'z oldiga yana muhim marralarga qo'yimoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga asosan, 1 001 ta korxonaning aksiya paketlarini ommaviy savdolar orqali to'liqligicha sotish, 40 ta korxonalar, shu jumladan yirik davlat kompaniyalari va tijorat banklari aksiya paketlarini "bitta aksiya – bitta lot" tamoyili asosida xalq IPOsini o'tkazish belgilab berildi.

Korxonalarni moliya bozoridagi ishtirokini faollashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son qaroriga asosan:

- davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari tomonidan uyushgan savdolaridagi qimmatli qog'ozlarga (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) kiritiladigan investitsiya hajmini ular tomonidan davlat qimmatli qog'ozlariga qilingan jami investitsiyalar hamda depozit va/yoki depozit sertifikatlariga qo'yilgan mablag'larga nisbatan 3 (uch) foizga yetkazish;
- davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag'larining bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja va korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish vazifalari belgilandi.

XULOSA

O'zbekistonda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga, korxonalarning jozibadorligiga erishish uchun ko'lamli va ahamiyati milliy iqtisodiyotimiz uchun ulkan bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish o'ta muhim masala hisoblanadi.

O'zbekistonda davlatning iqtisodiyotdagi aralashuvini qisqartirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni investorlarga sotish, xususiylashtirishni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozori qo'lamini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilab olingan.

Davlat tomonidan har yili kamida 10 ta korxona aksiyalarini IPO usulida savdoga chiqarish orqali ushbu korxonalarning aksiyalarini keyinchalik fond bozoridagi aylanmasini oshirish, korxonalarga qo'shimcha kapital jalb etishga erishish mumkin. Bunda, davlat korxonalari aksiyalarining qiymatini tegishli bozor kon'yunkturasi, tarmoq tahlili, korxonani kompleks o'rganish asosida to'g'ri belgilash hal qiluvchi omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rodrigo Wagner. Can the market value state-owned enterprises without privatizing them? An application to natural resources companies. Resources Policy 59 (2018) 282–290, journal homepage: www.elsevier.com/locate/resourpol
2. D.R. Abdikarimova. "Aksiyalar qiymatini baholash amaliyotini tahlili", –T.: "Iqtisod va moliya", 2021, 6 (142).
3. Xudoyqulov X.X. "Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi–T.: TDIU.2018 y.,-166 b.
4. Chinulov Q.R. "Aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishni takomillashtirish" iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. Iqtisod-moliya akademiyasi. 2019 y., – 66 b.
5. Internet resurslari:
<http://www.lex.uz>
<http://www.uzse.uz>
<https://daryo.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.